

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14801312>

XX-ASR O‘ZBEK RASSOMLARI TOMONIDAN YARATILGAN SHOIRA MOHLAR-OYIM NODIRABEGIM (1792-1842) PORTRETLARI

Mamatova Xushruya Nasimovna

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti amaliy san’at fakulteti “Chizmatasvir” kafedrasida dotsenti.

Mamatov Ulug'bek Nasimovich

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Amaliy san’at fakulteti “Chizmatasvir” kafedrasida o‘qituvchisi.

ANNOTATSIYA:

O‘tgan XX asrda O‘zbekistonning uch rassomi tomonidan shoira Nodirabegimga bag‘ishlangan rasmlar tadqiqoti.

KALIT SO‘ZLAR: shoira, rasmlar, kompozitsiya, Qo‘qon shahri, odamlar, she‘riyat, ijod.

ПОРТРЕТЫ ПОЭТЕССЫ МАХЛАР-АЙИМ НОДИРАБЕГИМ (1792-1842 ГГ.), СОЗДАНИЕ УЗБЕКСКИМИ ХУДОЖНИКАМИ XX ТОГО ВЕКА

Маматова Хушруя Насимовна

Доцент кафедры Рисунка факультета прикладного искусства, Национального института художеств и дизайна имени Камолиддина Бехзода.

Маматов Улугбек Насимович

Педагог кафедры Рисунка факультета прикладного искусства, Национального института художеств и дизайна имени Камолиддина Бехзода.

АННОТАЦИЯ:

Исследование картин посвященных поэтессе Нодирабегим, написанных в прошлом XX веке тремя художниками Узбекистана.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: поэтесса, картины, композиция, город Коканд, народ, стихи, творчества.

PORTRAITS OF THE POETESS MAKHLAR-AYIM NODIRABEGIM (1792-1842), CREATED BY UZBEK ARTISTS OF THE TWENTIETH CENTURY

Mamatova Khushruya Nasimovna

Associate Professor of the Department of Drawing, Faculty of Applied Arts, National Institute of Arts and Design named after Kamoliddin Bekhzod.

Mamatov Ulugbek Nasimovich

Teacher of the Department of Drawing, Faculty of Applied Arts, National Institute of Arts and Design named after Kamoliddin Bekhzod.

ANNOTATION:

A study of paintings dedicated to the poetess Nodirabegim, painted in the last twentieth century by three artists of Uzbekistan.

KEYWORDS: *poetess, paintings, composition, city of Kokand, people, poetry, creativity.*

Bu sahifalar mashxur o‘zbek shoirasi Mohlaroyim Nodirabegimning moybo‘yoq rangtasvirida ishlangan uch portreti tadqiqiga bag‘ishlandi. Shoira 1792 yili Andijon xoni Rahmonqulbek oilasida tug‘ildi. Yoshligida yaxshi ta‘lim oldi, o‘z ona tilidan tashqari forsiy tilni ham mukammal o‘rgandi. Yosh qizni Qo‘qon xoni Umarxonga uzatib yuborishdi, u ham yaxshigina shoir edi va Amiriy tahallusi bilan she‘rlar yozdi. U 30 yoshga kirganda eri vafot etdi va taxtga Nodirabegimning 14 yoshli o‘g‘li o‘tirdi.

Bu ajoyib ayol va uning Muhammadali hamda Sulton Mahmud 1842 yili Buxoro amiri Nasrullo tomonidan qatl qilindi, negaki u erining vafotidan keyin unga turmushga chiqishga va Qo‘qon xonligi taxtini berishga ko‘nmagan edi. She‘rlaridan birida Nodirabegim shunday yozadi:

*Yovuz yolg‘ondan uzoq bo‘l,
Dimog‘dor, gerdayganlarga xizmat qilma...
Erkinlarni zanjir lay olmas,
Qopqon ularning tizgini emas.*

Qo‘qon xonligi O‘zbekistonning Farg‘ona “Oltin vodi”sida joylangan edi. Feodalizm davrida Farg‘ona vodiysida ortadoksal Islom dini rivojlangan paytda XVII asrdan XX asrgacha 18dan ortiq O‘rta Osiyoda mashhur bo‘lgan shoirlar yashab ijod etgan. Nodirabegim Lutfiy, Navoiy, Xofiz, Fuzuliy va boshqa mashhur shoirlar an‘analarini davom ettirib she‘riyatning ko‘pgina janrlarida ijod qildi. Shoira va ustoz Uvaysiy xalq suygan va ehtirom qozongan shoirlar bo‘lganlar. Qadimda Farg‘ona deb nomlangan Farg‘ona vodiysi turli sohadagi iqtidorlarga juda boy. Undan uzoqda, Misrda IX asrda buyuk matematik olim Al Farg‘oniy yashagan va ijod qilgan edi (G‘arbda uni Al Fraganus deb ataganlar). Shoh va shoir, sarkarda Mirzo Zahriddin

Muhammad Bobur (1483-1530) Asxi shahrida tug‘ilgan. O‘zbek adabiyotining taniqli vakili, shoir va mutafakkir Boborahim Mashrab (1657-1711) Namangan shahrida tug‘ilgan. Toshkent shahridagi musiqali dramatik teatri Qo‘qon shahrida tug‘ilgan va XIX oxiri XX asr boshlarida ijod qilgan adabiyotshunos va shoir Muqimiy nomi bilan atalgan. Demokrat shoir va ma‘rifatparvar Furqat Qashqarda quvg‘inda o‘zining mashhur she‘rlarini yozdi. Rassomlar Chingiz Axmarov, Aziza Mamatova va Orif Muinovlar yaratgan Nodirabegim portretlari haqida gap ketar ekan, ta‘kidlash joizki, har uchchala portret ham shoira shaxsiyatini nihoyatda hurmat qiladigan va uning she‘riy merosi oshuftasi bo‘lgan rassomlar tomonidan ishlangan.

Chingiz Axmarov portretida Nodirabegim obrazi to‘laqonli aks ettirilgan. Rassom 100x100 xajmdagi portretni ishlov berilgan chipta mato ustiga tempera bo‘yoqlari bilan 1976 yili ishlagan. Portret muallifning mulki hisoblanadi. Nodirabegimning kiyimidagi va portret fonida yulduz shaklidagi devoriy mayolikadagi purkalgan och zumrad va och sariq, nozik umumiy, to‘q safsar ranglar bu buyuk shoira fojiviy taqdiridan darak berayotgandek. Bu portretga rassom qanchalik qayg‘uli o‘ylarni yuklatganligi sezilib turibdi. Portret ushbu rassomga xos bo‘lgan bezakdor yuza tarzida chizilgan. Nodirabegim portreti mayda bo‘laklarga bo‘lingandek tuyuladi, bu tomoshabinga shoira arab yozuvi bilan yozilgan parcha fonidagi biroz orqaga tashlagan boshiga, yuz ifodalariga, o‘ychan va ayni paytda qat‘iy nigohlariga e‘tibor qaratishga imkon beradi.

Boshidagi tilla qosh va quloqlaridagi uyg‘ur baldoq, egnidagi beqasam chopon faqat Farg‘ona vodiysigagina xos bo‘lgan xalq ustalari qo‘li bilan yaratilgan san‘at asarlarini va mahalliy amaliy san‘at kasbiy maktablari qadimiy an‘analari ifodasini ko‘rsatib turadi.

Portretda shoira qo‘l harakatlari ifodali, chap qo‘l kafti o‘ng qo‘l kaftini ushlab turibdi, bu uning fikrlarini jamlanganligi, ayni paytda bu go‘zal ayol qalbida kechayotgan xayajonni ifodalaydi. Tasviriy san‘at ustasi Chingiz Axmarov Nodirabegim obrazi ustida uzoq (1970 yildan 1976 yilgacha) izlandi. 1970 yildayoq rassom O‘zbekiston davlat san‘at muzeyida saqlanayotgan shoira ko‘krakdan portretini yaratdi. Bunda 1976 yili yaratilgan portretga o‘tkazilgan shoira xarakterining asosiy jihatlari tasvirlangan edi. Ta‘kidlash joizki, rassomning ko‘pgina ajoyib asarlari shu muzeyda saqlanadi. Shu asnoda katta san‘atkor Chingiz Axmarov Mohlaroyim Nodirabegimga o‘z ehtiromini bildirdi.

Rassom Aziza Mamatova shoira Nodirabegim portretini haqiqiy rassom bo‘lib shakllanganda ishladi. U portret ustida 2000 yildan 2005 yilgacha besh yil davomida ishladi. Uning o‘zi portretni yakunlanmagan, deb hisoblaydi. 1947 yili Qo‘qon shahrida ziyolilar muhitida tug‘ilgan rassom Nodirabegim haqida ko‘p eshitgan edi. Mashxur xofizlar uning she‘rlari asosida qo‘shiqlar aytardi, Farg‘ona vodiysi

aholisi bu shoironing ijodiga va Nodirabegimning o'zining shaxsiyatiga uning ma'naviy go'zalligi, xalqiga sadoqati va Vatanparvarligi tufayli alohida-g'urur ehtirom tuyardi.

Portret bo'yoq bilan ishlov berilgan zig'ir tolasidan to'qilgan chipta mato ustiga moybo'yoq bilan ishlangan. U muallifning mulki hisoblanadi. Portret sovuq, kumush rang tuslardan ishlangandek taassurot qoldiradi. Unda safsar ranglar aralashtirilgan ko'k-yashil ranglar asosiy o'rin tutadi. Yangi oy nim qorong'i osmonda suzyapti, yengil shaboda ayol sochi tolalarini o'ynayapti, to'q yashil bargli nastarin shoxlari tebranadi. Shoira uzun, kumush naqshlar tushirilgan to'q moviy rangli libosda tasvirlangan, libosi chiroyli qomati va oyoqlariga yopishib turibdi. Shoira bog'da o'tiribdi va uning yonida yosh daraxt shoxiga Sharqda suyukli bo'lgan to'q ko'k rangdagi tovus qo'nib turibdi. Tovus boshi shoiraga qayrilgan, go'yo u she'r tinglayotgandek.

*G'amingni qo'y, sof nur sochgin,
G'ubor bosgan joyda, gul ham o'smagay.
Mag'rurlar nuqsoni seni yer qilgay:
Qayerdagi kibr-havo, u yerda uqubat bilgin.*

Nodirabegimning nigohlari tomoshabinga qaratilgan, u xuddi fojiali o'limini oldindan sezayotgandek, ko'zlari g'amgin, lekin qo'rquvdan asar ham yo'q. Bu iqtidorli va mag'rur ayol dushmanning haqoratomuz taklifini qabul qilishi mumkin emas edi va o'limni afzal ko'rdi. Mana ikki yuz yildirki Farg'ona vodiysida uning she'rlarini o'qiydilar va qo'shiq qilib aytadilar. O'zbek xalqi Nodirabegim she'riyatini o'z xotirasida asrab avaylayapti. 2000 yili rassom Orif Muinov Nodirabegim portretini yaratdi. Portret ishlov berilgan zig'ir matoga moybo'yoq bilan ishlandi. Portretda oltinsimon yaproqli olma daraxti yonida zardo'zi bosh kiyimda yosh ayol tasvirlangan, egnida yoqalari va yenglariga tillarang iplar bilan naqsh tikilgan to'q qizil rangdagi kiyim. Rassom chizgan boshqa ayollar portretlari kabi bu portretga ham ranglar mohirona tanlangan.

U iliq, tillarang bo'yoqlarda yaratilgan va yorug'lik uyg'unligi tasavvurini beradi. Shoira o'ng qo'lida qalam ushlab turibdi, chap qo'lida esa uning she'rlari yozilgan kichikroq daftar. Nazarimizda rassom shoiraga ilhom kelgan lahzadagi holatini tasvirlashni xohlagan. Nodirabegim portreti rassom O.Muinov ayollar psixologiyasini chuqur bilganligidan darak beradi. Bu portretda rassomning rangtasviri ma'lum yaxlitlikka erishdi. "O.Muinov ijodida romantika va etika, realistik va majoziylik usullari ko'pincha birlashib uyg'unlashib ketadi". Tasviriy san'at ustasi O.Muinov o'zining Nodirabegim portretida o'z qahramonining ulug'vorligini butun boricha ochib berdi.

Chingiz Axmarov, Aziza Mamatova va Orif Muinovlar yaratgan shoira Nodirabegim portretini yaxshi yoki yomon deb baholab bo‘lmaydi, negaki uchchala rassom turli ijodiy bosqichlarni bosib o‘tgan, ularning hayot yo‘li turlicha va ular turli tasviriy maktablar vakillari hisoblanadi. Chingiz Axmarov urushgacha bo‘lgan davrda Moskvadagi Surikov institutini tamomladi, Aziza Mamatova Leningraddagi Repin nomidagi rassomlik institutida 1966-1973 yillari o‘qidi, Orif Muinov Toshkent tasviriy maktabi vakili hisoblanadi.

Ularning dunyoqarashlari, surat ishlash usullari turlicha. Ularning asarlari har qanday pand-nasihatdan holi, ular yaratgan asarlarida aniq insoniy qiyofalarni haqqoniy, tarixiy tadqiq etilishi e‘tiborni tortadi. Shu bilan birga bu portretlar mualliflari vaziyatni keng his qilish, umuman muhitni idrok etish imkoniyatiga ega bo‘ldilar, shu munosabat bilan portretlar ham xususiy kuzatishlar natijasigina bo‘lib qolmadi. Davrni shunday his qilish bu rassomlarning shaxsiy, milliy farqlanishiga qaramay shakl-shamoyil usullarining yaqinligidan darak beradi. Bu obrazlarni rangtasvir talqinining murakkabligida ko‘rinadi, u tomoshabinni jiddiy ruhiy muhitga sho‘ng‘itadi, uni voqelikning go‘zalligi va tarang dialektikasi haqida o‘ylashga majbur qiladi. Bu rassomlarni shoira Nodirabegimga va uning ijodiy merosiga chuqur extirom birlashtiradi. Bu asarlarni Leonardo da Vinchi yaratgan “Madonna Litta”, uning kichik zamondoshi Rafael Santi yaratgan “Sikstin Madonnasi” bilan taqqoslash mumkin emas, chunki bu asarlarni tomosha qilib tomoshabin ikkala asardan ham estetik va etik baxra oladi.

XX asr ikkinchi yarim va XXI asr boshlari o‘zbek tasviriy san’ati ustalarining asarlarida insoning ruhiy hayoti uning atrof olamga munosabati kabilar umuminsoniy va nodavriy satxga ko‘chiriladi. Aniq voqelik va insonning his-tuyg‘ulari va idroki Alisher Navoiy she‘riyatida, Mikelanjelo Buonarroti Sikstin kapellasi devoriy suratlarida, Lyudvig van Betxovenning simfoniyalarida, umuman olganda turli davrlarning jahon badiiy hayotining ko‘plab yirik voqeliklaridagi ramziy obrazlarda uchraydi. Yuqorida nomlari keltirilgan asarlarning yosh avlod ma‘naviy tarbiyasi va rivojida axamiyati va ta’siri nihoyatda katta. Tasviriy san’at ustalarining asarlari “beqarorlik, tasodifiylik va taxminiylik” kabi jonsiz naturalizmga qarshi turadi.

O‘zbekistonning ko‘pgina tasviriy san’at ustalari musiqiy va nafosatli tafakkur bilan shakllandilar. Ular yorqin mutanosib olamni va yuksak takomilni orzu qiladilar. O‘zbekiston rassomlari tomonidan shoira Nodirabegim portretini yaratilishi aynan shu orzu maqsadni ko‘zlaydi. Xotimada shoira Nodirabegimning so‘zlarini keltirish o‘rinli. U o‘z davridan yorqin kelajak haqidagi orzusini qoldirdi: *“Men baxtimiz quyoshi porlashi va jaholat zimistonini yo‘qolishini orzu qilaman”*.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Тимурова Г. «Певец женских образов». Санъат. 2/2001 г. с. 37. 2.
2. Mamatov U.N. STUDY OF THREE PORTRAITS OF THE GREAT POET OF THE MIDDLE AGES, ALISHER NAVOI. — USE: Oscar Publishing Services, 2023. — ISSN – 2771-2141. — P. 15-20 3.
3. Kasimov K.S. THE POSITION OF THE ARTIST IN MODERN SOCIETY. — USE: Oscar Publishing Services, 2023. — ISSN – 2771-2141. - P. 10-13 4.
4. Allabergenov S.A. The Significance of Colors as an Emotional Factor in the Art of Painting. — USE: AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies, 2023. — ISSN (E): 2993-2157 — P. 148-150 5.
5. Mahmudov B.T. Perception of Miniature Works through an Artistic Image. — USE: IJNRAS, 2023. — ISSN: 2751-756X. - P. 179-182 6.
6. Umirzakov R.R. IMAGINATION ALLOWS A PERSON TO REALIZE MANY PROJECTS. — European Journal of Innovation in Nonformal Education, 2023. — ISSN - 2795-8612 - P. 158-161 7.
7. Xo‘janiyozov R.Q. O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA O‘ROL TANSIQBOYEV IJODI VA FAOLIYATI. – RESEARCH AND EDUCATION, 2023. – ISSN: 2181-3191 – B. 78-79 8.
8. Vokhidova G.I. Cubism in Fine Arts – Innovation and Integrity, 2023. – ISSN: 2792-8268 – P. 39-40.